


Topshiriqlar.

1. Quyidagi qisqartmalarni yodlab oling. (Botanika, rus va ingliz tllarining integratsiyasiga oid topshiriq).

O`zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Lotin tilida
Gulkosa – Gk	Чашечка-Ч	Calyx - Ca	Calyx-Ca
Gultoj-Gt	Листик-Л	Corolla-Co	Corolla-Co
Changchi-Ch	Андроцей-А	Androtsium-A	Androeceum-A
Urug`chi-U	Пестик-П	Genetsium-G	Gynoeceum-G
Oddiy gulqo`rg`on- Og	Обыкновенный околоцветник-О	Common perianth-P	Perigonium-P
Aktinomorf gul- *	Актиноморфный цветок-*	Actinomorphic flower- *	Actinomorphyum flower- *
Zigomorf gul- :	Зигоморфный цветок- :	Zygomorphic flower- :	Zygomorphyum flower- :

2. Quyidagi matnni diqqat bilan o`qing. (Botanika, adabiyot va tarix fanlarining integratsiyasi).

Lola guli va baxt afsonasi



Bir zamonlar, bir yigit uzoq yillardan beri baxt izlab yurardi. U tog'larni, dashtlarni kezib, baxt qayerda yashirin ekanini bilishga intilardi. Kunlardan bir kuni u bir sehrli g'or oldiga keldi. Bu g'orda baxt sari yo'l ochadigan sehrli gul — lola yashirin ekan, deb eshitgan edi. Lekin g'orning og'zida bahaybat ajdaho turardi.

Yigit qo'rqmay, ajdaho bilan olishdi va nihoyat uni yengdi. U g'orga kirib,

ichkarida bir-biridan go'zal lolalarni ko'rdi. Ammo lola gulining mag'zi yopiq edi va hech ochilmasdi. Yigit ko'nglidan: *"Agar bu gul mening baxtim bo'lsa, o'zi ochilsin"*, — deb o'yladi.

Shunda mo'jiza yuz berdi — gul ochilib, ichidan mayin nur yog'ildi. Bu nur yigitning qalbini mehr va umid bilan to'ldirdi. U tushundi: Haqiqiy baxt — kuch, jasorat va samimiy yurakda yashirin ekan.


Yuqoridagi matndan ko'rinib turibdiki, lola guli baxt ramzi ekan. Siz atirgul, moychechak, bo'tako'z kabi gullarning turli davlatlarda qanday ramzlarni anglatishini toping.

3-topshiriq. (Botanika, zoologiya, ekologiya va odam va uning salomatligiga oid topshiriq).

Asalari gulzorga borib, hartumlari bilan gullar nektarini olish vaqtida qanotlari orqali gul changlarini uchiradi, uchgan gul changlari asalarini mahsus tukchalariga qo'nadi. Asalari gul changlarini oldi oyoqlari bilan to'plab orqa oyoqlaridagi savtchalarga soladi. In kataklariga kelgach avval lichinkalarini tashlaydi, lichinka ustiga gul changini, uning ustiga asal qo'yadi, keyin mum bilan berkitadi. Gul changi bilan ozuqalanga asalari lichinkasi bor yo'g'i 4-5 kundan so'ng yetuk ariga aylanadi. Gul changi o'rganilganda shu narsa malum bo'ldiki, uning tarkibida inson organizimida ishlab chiqariladigan ko'plab gormonlarning oraliq mahsulotlari mavjud ekan. Shuning uchun gul changi gormonlar ishlab chiqarishda katta ta'sirga ega.

Gullardagi hasharotlar, shamol, kapalaklar yordamida changlanishga moslashish belgilari va simbiozlarni sanab o`ting.

4-topshiriq. Quyida xalqaro qizil kitobga kiritilgan o`simliklarning rasmlari va nomlari keltirilgan. Ularning kamayib ketish sabablari haqida ma`lumotlar tayyorlang. (Botanika va ekologiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).



Rafflesia arnoldii.

Dunyodagi eng yirik gul bo'lib, Indoneziya o'rmonlarida o'sadi. Yo'qolish xavfi ostida.



Nepenthes attenboroughii

Filippindagi Palavan orolida topilgan bu o'simlik chigirtkalarni tutuvchi xususiyati bilan ajralib turadi.



Amorphophallus titanum".

Titan arum" nomi bilan tanilgan bu o'simlik ham Indoneziyada uchraydi va katta hajmli guli bilan mashhur.



Cycas revolute.

Yaponiyada o'sadigan bu qadimiy o'simlik turi ham xavf ostida.

5-topshiriq. Yuqorida berilgan o`simliklarni asrab qolish haqida ma`lumotlar keltiring va uni rus tilida bayon qiling. (Botanika var us tili fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).

6-topshiriq. O`zbekistonda keng ishlatiladigan dorivor o`simliklar haqida ilmiy maqola tayyorlang. (Botanika va ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid topshiriq).

7-topshiriq. Changlanish jarayonida enzimlarning ishtiroki haqida ilmiy matn tayyorlang. (Botanika, biokimyó va ona tili fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).